

“Muqaddasdir Vatan bayrog‘i”

O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘i qabul qilinganligining 31 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston tarixi davlat muzeyida “Muqaddasdir Vatan bayrog‘i” nomli madaniy-ma‘rifiy tadbir o‘tkazildi.



Bayrog‘imiz o‘zida butun O‘zbekiston xalqining asriy orzu – istaklari, g‘ayrati va shijoati, xalqimizga hos mehmondo‘stlikni mujassam etgan. Bayrog‘imiz g‘urur va faxrimiz timsolidir. Bayrog‘imizni tadbirlarda va xorijiy davlatlarda xilpirab turishi hammamizga iftixor baxsh etadi. Davlatimiz bayrog‘i qabul qilinganligiga 31 yil to‘lishi munosabati bilan Shayhontoxur tumani Yoshlar ittifoqi sardorlar kengashining iqtidorli yoshlariga muzey bo‘limlarining mudirlari tomonidan davlatimiz bayrog‘i haqida ma‘lumotlar keltirilib, o‘quvchi yoshlarning savollariga javob berildi. Shuningdek barcha tadbir qatnashchilari muzey rahbariyati tomonidan tashakkurnoma bilan taqdirlandilar va muzey ekspozitsiyalari bilan tanishtirdilar.